

DASTGOHLI RANGTASVIRDA PORTRET ISHLASH MASALALARI

Ibragimova Iroda

*O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti Tasviriy san'at fakulteti
Dastgohli rangtasvir yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

*Chizish nima? Bu siz his qilayotgan narsangiz va nima qilishingiz
mumkinligi o'rtasida turgan temir darvozani buzib o'tish qobiliyatidir.*

Vinsent Van Gog

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz tasviriy san'atdagi portret janri va guruhli portret janrining kelib chiqishi va ma'nosi uning dolzarbligi bilan tanishishingiz mumkin.

Annotation: In this article you can get acquainted with the origin and meaning of the portrait genre and group portrait genre of fine art with its relevance

Kalit so'zlar: rangtasvir, san'at, dastgohli rangtasvir, janr, rassom, va boshqalar

Portret-bu haqiqatda mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lgan shaxs yoki odamlar guruhining tasviri yoki tavsifi. Portret rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikaning asosiy janrlaridan biri bo'lib, uning ma'nosi aniq shaxsning individual fazilatlarini takrorlashdir. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini adabiy lashtirish yotadi.

PORTRET (frans. Portrait-tasvir)-1) tasviriy san'at janri; real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo'lgan xayoliy qiyofalarning tasviri rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek foto san'atining muhim janrlaridan biri.

Ma'lumki har bir davrning usta rassomlari bo'lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarning go'zal qiyofasini obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Uyg'onish davrining buyuk nomoyondasi Lenardo da Vinchining „Avtoportret“, „Jakonda“ asari, Velaskesning „Papa Inokentiy X“ portreti shular jumlasidandir.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasini Lutfulla Abdullayev, Abdulhay Abdullayev, Raxim Ahmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib qildilar. Lutfulla Abdullayevning „Mulla to'ychi Toshmuhamedov“, „Y. Axunboboyev“ portretlari realistik an'analarda mohirona tasvirlangan. Abdulhay Abdullayev birinchi o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o'z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni

adabiyot va san'at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Badiiy adabiyot — personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri; badiiy obraz yaratish vositalaridan biri portret harakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog'lik bo'ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. U adabiyotda qadimdan mavjud. Tasvir vositasi sifatida o'zgarib takomillashgan. Xalq og'zaki ijodida inson individullashgan shaxs sifatida tasvirlanmaganligi uchun uning portreti ham ko'pincha mavhum, umumiy xarakterga ega.

Qadimgi g'arb va sharq adabiyotlarida ham portret ko'pincha mavhum, an'anaviy harakterda bo'lgan. Masalan, g'azallarda yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh, yulduz, tun va kun kabi narsalarga nisbatda ko'rsatilgan. Realist yozuvchilar tashqi qiyofani batafsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog'liq holda ro'y bergan o'zgarishlarni aynan aks ettiradilar (masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek). XIX asr da portretning ichki yoki psixologik (ruhiy) portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri — belgilari va ruhiy kechinmalari majmui ochib beriladi (Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov). Adabiy portret — atoqli shaxs, ya'ni yozuvchi, rassom, jamoat arbobining hayoti va ijodi haqidagi ocherk alohida janr hisoblanadi.

Mening vazifam go'zal portret yaratishdir. Bu avtoportret yoki menga yaqin odamning portreti bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda zamonaviy rangtasvirda ko'plab yosh rassomlar ham ijod qilib kelishyapti bulardan Umar Radjabov, Sarvinoz Qosimova, Saidbek Sabirbayev va boshqalar. Mening xulosam shuki inson o'zining fikrini ommaga bildirishga uyalmasligi va bu g'oya bu ish faqat o'ziniki ekanligini namayon qilishdan tortinmasligi kerak, shundagina jamiyatda o'z o'rnini va mavqeini topishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug' portret ustalari tajribasini o'rganib, ulardan unumli foydalanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent,2000
2. San'at tarixi. Ne'mat Abdullayev, Abdumajid Madraimov.^[1]